

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc/03/29.12.2022/Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**YARMUXAMEDOVA IRODAXON NOSIR QIZI**

**TURKIYA GEOSIYOSATIDA MARKAZIY OSIYONING O‘ZIGA  
XOS JIHLTLARI VA ISTIQBOLLARI**

**23.00.04 –Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy  
muammolari**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктор философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science**

**Yarmuxamedova Irodaxon Nosir qizi**

Turkiya geosiyosatida Markaziy Osiyoning o'ziga xos jihatlari va istiqbollari.....4

**Ярмухамедова Иродахон Носир кизи**

Особенности и перспективы Центральной Азии в геополитике  
Турции.....21

**Yarmuxamedova Irodaxon Nosir kizi**

Features and prospects of Central Asia in the geopolitics of Turkey.....41

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.PhD/Ss471 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Jo'rayev Narzulla Qosimovich</b> siyosiy fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Muhammadsiddiqov Muhammadolim Muhammadroziq og'li</b> siyosiy fanlar doktori, professor  <b>G'oziyev Ravshan Rustamovich</b> siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori.
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: [tsuos@info.uz](mailto:tsuos@info.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21. faks: (998971) 233-52-24

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.B.Sayfullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**O.I.Alimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**E.S.Sultonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi xalqaro geosiyosiy jarayonlar an'anaviy dunyo tartibotiga o'z ta'sirini ko'rsatib, strategik ahamiyatga molik mintaqalarda turli nizo va ziddiyatlar kuchayib borayotgan sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhiti hukm surmoqda. Mazkur muhit yirik va mintaqaviy darajadagi tashqi aktorlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga bo'lgan qiziqishi hamda manfaatlari ko'lamining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari doirasi tobora ortib borayotganligini kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyo mintaqaviy o'zligining qaytadan tiklanishi, global geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik va do'stona aloqalarning rivojlanishi taraqqiyotning "Turkiy dunyo" modeliga asosiy e'tibor qaratishni taqazo etmoqda. Shu boisdan ilmiy izlanishlarda turkiy davlatlar doirasida ko'p tomonlama diplomatiya, xususan, Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik manfaatlari va yondashuvlarini tadqiq etish, o'z navbatida, mazkur yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslari bo'yicha xulosalar ishlab chiqish zarurati dolzarb xususiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi ko'p tomonlama munosabatlar yuqori darajada rivojlanib bormoqda. Binobarin, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va qardoshlik rishtalariga asoslangan keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish har ikki davlat tashqi siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. "Biz hamkorlikning yangi, yanada mustahkam ko'priklarini qurayapmiz. Birgarlikda xalqlarimiz o'rtasidagi qardoshlikning tarixiy rishtalariga asoslangan turk-o'zbek munosabatlarini davom ettirish, bu — bizning tarix oldidagi mas'uliyatimizdir"<sup>1</sup>.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-avgustdagi – 494-son "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa

---

<sup>1</sup>O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari samarali muzokaralar natijalaridan nihoyatda mamnunligini bildirdilar. 06.06.2024. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sahifasi: <https://president.uz/oz/lists/view/7297>

normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dissertatsiyada ko‘tarilayotgan masalalar va uning ayrim qismlari bo‘yicha tadqiqotlarni 3 umumiy guruhga ajratish mumkin.

*Birinchi guruh.* Ushbu guruhni MDH olimlari, xususan, o‘zbek olimlarining tadqiqotlari tashkil etadi. A.Kasimov, A.Jalilov, S.Safoyev, N.Kasimova, N.To‘laganova, O.Sirojov, F.Tolipov, D.Sayfullayev, S.Jo‘rayev, H.Azimov va B.Imomov<sup>2</sup> singari o‘zbek olimlari tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchi davlatlarning, jumladan, Turkiyaning geosiyosiy manfaatlari, ikki va ko‘p tomonlama iqtisodiy siyosiy, madaniy hamda xavfsizlik sohasidagi aloqalari, shuningdek O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarining shakllanish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Biroq, O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, Turkiya geosiyosatida Markaziy Osiyoning o‘ziga xos jihatlari va istiqbollari mavzusi nisbatan yangi va yetarlicha o‘rganilmagan.

Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosati masalasi bo‘yicha MDH olimlaridan V.V.Avatkov, N.G.Kireyev, V.I.Danilov, S.B.Drujilovskiy, R.Sh.Mrassi, A.Xasanov, R.N.Nadirev, V.Nadeyin-Rayevskiy, X.S.Karem, A.V.Grozin, A.V.Suleymanov, P.V.Shlikov<sup>3</sup> ilmiy tadqiqotlarida Turkiyaning Markaziy Osiyoga doir geosiyosatining shakllanish bosqichlari va geosiyosat yo‘nalishlarini belgilab beruvchi siyosiy mafkura va g‘oyalarning hamda tashqi siyosat doktrina va konsepsiyalarning mohiyati hamda mintaqada Rossiya va Turkiyaning geosiyosiy manfaatlar raqobati atroflicha tahlil qilingan. Xususan, X.Karem, A.V.Grozin, A.V.Suleymanov ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo geosiyosiy jarayonlariga tashqi omillar, jumladan, turk omilining ta’siri, mintaqada “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

*Ikkinchi guruh.* Xorij olimlaridan A.Balker, Z.Bjezinskiy, T.Viller, E.Kavalskiy, F.Star, J.MacCarty, V.Fireman, A.Sengupta, S.Kornell<sup>4</sup> tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy holati va unda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlar atroflicha tahlil etiladi. Xususan, E.Kavalskiy ilmiy asarida Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy o‘rniga to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, mintaqada munosabatlar madaniy-gumanitar aloqalar hamda savdo- iqtisodiy hamkorlik bilan cheklanishini ta’kidlagan. A.Sengupta asarida Markaziy Osiyo mintaqasida G‘arb olimlari tomonidan demokratiya tamoyillari namunasi sifatida talqin etilgan “turk

---

<sup>2</sup> Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

<sup>3</sup> Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

<sup>4</sup> Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

modeli”ning siyosiy ahamiyati atroflicha yoritilgan.

*Uchinchi guruh.* Mazkur guruh Turkiya olimlari va ekspertlari mulohazalari aks etgan ilmiy tadqiqotlarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida A. Sina, S.Fazil, O.O‘merji, T.Javdar, E.Mustafa, O‘.Jaha, Y.Dursun, K.Munji, A.Taner, Akyol O‘.Mehter Hamdi<sup>5</sup> asarlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Mazkur asarlarda Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog‘liq geoiqtisodiy va geomadaniy manfaatlari, xavfsizlik masalalari, “turk modeli”ning o‘ziga xos xususiyatlari, “yumshoq kuch”ni amalga oshiruvchi asosiy vositalari xususida e‘tiborga molik ma‘lumotlarni keltirib o‘tilgan.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining 7.5-bandidagi “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy va sosial-iqtisodiy islohotlarning mushtarakligi” mavzusi hamda PZ-20170928710 raqamli “Harakatlar strategiyasini bajarish davrida mamlakatimizda ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash masalalari” nomli ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Turkiyaning zamonaviy geosiyosatida Markaziy Osiyo omili va istiqbollari ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Turkiya geosiyosatining nazariy-konseptual asoslarini ochib berish, klassik va zamonaviy geosiyosiy nazariyalarni Turkiya misolida o‘rganish;

Turkiya geosiyosatining shakllanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlarini, geosiyosiy faoliyat va erishgan natijalarini aniqlash;

Turkiya zamonaviy geosiyosatining ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq qilish;

Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarini tahlil qilish;

Turkiyaning “Turkiy dunyo” strategiyasida “yumshoq kuch” omilining ahamiyati va ta‘sirini ochib berish;

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosatida Turkiy davlatlar tashkilotining o‘rni va rolini aniqlash;

Zamonaviy Turkiya va Markaziy Osiyo ikki tomonlama aloqalarning rivojlanish dinamikasini, imkoniyatlari va kamchiliklarini ko‘rsatib berish;

O‘zbekiston va Turkiya hamkorligining istiqbolini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** zamonaviy Turkiya geosiyosatida Markaziy Osiyo omili tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** Turkiya geosiyosatining shakllanishi, uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishda “Turkiy dunyo” strategiyasi hamda O‘zbekiston va Turkiya hamkorligining o‘ziga xos jihatlari va istiqbollari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik, tizimlashtirish, kuzatuv, kontent, event tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat.

---

<sup>5</sup> Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

Turkiyaning zamonaviy geosiyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi strategik o‘rin tutayotganligi, keng qamrovli va ko‘p qirrali siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar aloqalar dinamikasi rivojlanib, umumiy tarixiy ildizlar, mushtarak til, yagona din, madaniyat, o‘xshash qadriyat va an‘analar Turkiyaning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy yondashuvlariga asos bo‘lib xizmat qilayotganligi “Turkiy birdamlik” konsepsiyasiga ko‘ra asoslab berilgan.

Xalqaro munosabatlar tizimidagi geosiyosiy qarashlaridan kelib chiqib, Turkiya Turkiy davlatlar tashkilotini iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan to‘laqonli mintaqaviy hamkorlik mexanizmidan yangi dunyo tartibotida ishtirok etuvchi maqomidagi platformaga aylantirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli strategik vazifalarni ishlab chiqayotganligi “Turkiy nigoh–2040” konseptual dasturi asosida isbotlangan.

Turkiy davlatlar o‘rtasidagi ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikning ko‘lami kengayib, davlatlararo munosabatlar o‘zaro ishonch va hurmat tamoyillari asosida rivojlanib borayotganligidan kelib chiqqan holda, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi integratsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida “Turkiy davlatlar Bojxona Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma” loyihasini ishlab chiqish taklifi dalillangan.

Markaziy Osiyo va Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish, “Turkiy dunyo” xalqlari o‘rtasida xalq diplomatiyasini mustahkamlash, O‘zbekiston tashqi siyosatida Turkiya bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarishga qaratilgan ustuvor maqsadlardan kelib chiqib, o‘zaro bog‘liqlik jarayoniga turtki beruvchi “Markaziy Osiyo+Turkiya” formatini tashkil etish zarurati asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda ko‘rinadi:

Turkiyaning zamonaviy geosiyosatida Markaziy Osiyo omilining o‘rni va ahamiyati e‘tiborga olingan holda, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlik masalalari yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston tashqi siyosatida “turkiy dunyo” davlatlari Turkiya bilan o‘zaro hamkorlik va istiqboldagi bog‘liqlik mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar ilgari surilgan.

Tadqiqot natijasida shakllantirilgan amaliy taklif va xulosalardan xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat bilan bog‘liq muassasalar faoliyatida hamda ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ro‘yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e‘lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilinganligi va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta‘minlangan.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu ilmiy ishning *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, taklif etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan ilmiy

tadqiqotlarning metodologiyasi va usullarini takomillashtirishda, oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayonida "Xalqaro munosabatlar", "Geosiyosat", "Jahon siyosati", "Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari", "Zamonaviy xalqaro munosabatlarda O'zbekiston manfaatlari" kabi fanlarni ilmiy- nazariy jihatdan boyitish hamda mavzuga doir ilmiy loyihalar va tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarning *amaliy ahamiyati* tegishli vazirlik va idoralar, "aql markazlari", oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida siyosiy fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydali bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Markaziy Osiyo va Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish, "turkiy dunyo" xalqlari o'rtasida xalq diplomatiyasini mustahkamlash, O'zbekiston tashqi siyosatida Turkiya bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan ustuvor maqsadlardan kelib chiqib, o'zaro bog'liqlik jarayoniga turtki beruvchi "Markaziy Osiyo+Turkiya" formatini tashkil etish zarurati yuzasidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 1-maydagi №16-03/14034-son ma'lumotnomasi*) Natijada, dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Turkiyaning zamonaviy geosiyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi strategik o'rin tutayotganligi, keng qamrovli va ko'p qirrali siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar aloqalar dinamikasi rivojlanib, umumiy tarixiy ildizlar, mushtarak til, yagona din, madaniyat, o'xshash qadriyat va an'analar Turkiyaning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy yondashuvlariga asos bo'lib xizmat qilayotganligi "Turkiy birdamlik" konsepsiyasiga asoslanganligi xususidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tomonidan axborot-tahliliy hujjatni tayyorlashda foydalanilgan. (*Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2024- yil 8-apreldagi 14-07-609-son ma'lumotnomasi*). Dissertatsiyaning natijalari asosida bildirilgan xulosalar O'zbekistonda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladigan taklif va tavsiylarni ishlab chiqishga yordam bergan.

Turkiy davlatlar o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlikning ko'lami kengayib, davlatlararo munosabatlar o'zaro ishonch va hurmat tamoyillari asosida rivojlanib borayotganligidan kelib chiqqan holda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi integratsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida "Turkiy davlatlar Bojxona Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma" loyihasi xususidagi muhim tahliliy xulosa va takliflardan O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan axborot-tahliliy hujjatni tayyorlashda foydalanilgan. (*O'zLiDeP Siyosiy*

*Kengashi Ijroiya qo‘mitasining 2024-yil 27-martdagi 01-27-183-son dalolatnomasi*). Keltirilgan ilmiy natijalardan O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasining ish rejasiga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirishda o‘ziga xos manbaa vazifasini bajarishga xizmat qilgan.

Xalqaro munosabatlar tizimidagi geosiyosiy qarashlaridan kelib chiqib, Turkiya Turkiy dalatlar tashkilotini iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan to‘laonli mintaqaviy hamkorlik mexanizmidan yangi dunyo tartibotida ishtirok etuvchi maqomidagi platformaga aylantirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli strategik vazifalarni ishlab chiqayotganligi “Turkiy nigoh–2040” konseptual dasturiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanali ijodkorlari “O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi masalalari” mavzusidagi “Taqdimot” ko‘rsatuvini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (*O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat unitar korxonasi 2023-yil 19-noyabrda 02-40-2398-son ma’lumotnomasi*). Natijada, bu ko‘rsatuv Markaziy Osiyo davlatlari va Turkiya o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, fan-ta’lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash ahamiyatini keng jamoatchilik va aholiga ilmiy tarzda yetkazishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusiga oid jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (ulardan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosani o‘z ichiga olgan 149 sahifadan iborat.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan mosligi, tadqiq qilinayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi aniqlangan. Ilmiy tadqiqot usullari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e‘lon qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **Turkiya geosiyosatini tadqiq etishning konseptual asoslari** deb nomlangan birinchi bobida Turkiyaning geosiyosiy jarayonlarini tadqiq etishda nemis, ingliz-amerika klassik geosiyosat namoyandalarining nazariyalari, shuningdek, Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etishda turk olimlarining “yevroosiyochilik” nazariyasi ko‘rib chiqildi. Mazkur bobda Turkiya geosiyosatining shakllanish bosqichlari hamda ustuvor yo‘nalishlarini bevosita belgilab bergan “Kamolchilik”, “Neousmoniylik” mafkuralari, “Strategik chuqurlik”, “Qo‘shnilar bilan nol muammo” doktrinalari tahlil etilgan.

Turkiya geosiyosatini tadqiq etishda klassik geosiyosiy maktab vakillarining yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. Turkiyaning qulay va muhim geografik joylashuvi, mintaqaviy va xalqaro kuchlarning kesishgan nuqtasidan o‘rin olganligi bir vaqtning o‘zida mamlakat uchun yutuq va xavf-xatar keltirib chiqishi bilan asoslanadi. Shu sababli, Turkiya “Heartland<sup>6</sup>”, “Rimland<sup>7</sup>”, “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” va “Buyuk shaxmat taxtasi” singari nazariy-konseptual qarashlar in‘ikosida asosiy o‘rinni egallaydi.

Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan umumiy til, yagona din, mushtarak tarix va madaniyatga egaligi bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan nazariy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. 1991-yildan keyin o‘tgan davr mobaynida Turkiyaning rasmiy geosiyosiy faoliyatida ham, hokimiyat tepasiga kelgan kuchlarning va hokimiyat uchun kurashayotgan muxolifatning bayonotlarida ham, ilmiy va ijtimoiy fikr vakillarida ham mamlakatning kelgusidagi geosiyosiy faoliyatiga yondashuvlar ancha rang-barang ekani ko‘zga tashlanadi. Turk jamiyatining anchagina qismini tashkil etadigan millatchi kuchlar “Turkiyaning Adriatika dengizidan Xitoyga qadar bo‘lgan barcha turkiy yerlarni, turkiy-musulmon xalqlarni o‘z atrofida birlashtirishini, shu asosda mamlakatni XXI asrning dunyo kuchiga aylantirishini” taklif etishlari diqqatga sazovor. Turk

---

<sup>6</sup> H.J. Mackinder. The geographical Pivot of history. The geographical Journal. – P.421-437.

<sup>7</sup> N.J. Spykman. The geography of the peace. – New Haven: 1943. – P. 85.

siyosatchilari G‘arbdan Yevroosiyoga yuz burishga, “yevroosiyochilik” geosiyosiy yo‘li taklif etdilar. Turk siyosatshunosi Fotih Oqgul turk yevroosiyochiligidagi uchta asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatgan. Bular muvofiq tarzda: muhofazakorlar, millatchilar va sotsialistik qarashdagi yevroosiyochilardir. Bir guruh vakillar Turkiyaning ko‘proq Yevropa va Osiyo orasidagi (Yevroosiyodagi) davlatlar va xalqlar tomonga yuz burishi hamda mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotini mintaqaning turk-slavyan birligiga bog‘liq yo‘sinda tasavvur qilsa, boshqa guruh o‘tmishdagi “Turonchilik” g‘oyasini yana jonlantirib, mintaqadagi turk-musulmon xalqlarni Turkiya atrofida birlashtirish, XXI asrni “turk asri”ga aylantirish kabi millatchilik shiorlarini o‘rtaga tashlamoqda. Sotsialistik guruh namoyandalari o‘zlarini eng sobit otaturkchi sifatida ko‘rsatib, Yevroosiyoga geografiyasida “xalq davlati” g‘oyasini amalga oshirishni, bu mintaqadagi barcha xalqlar va davlatlarning umumiy manfaatlarini birlashtirgan holda “tinch va farovon” Yevroosiyoga Ittifoqini bunyod etish maqsadini ko‘zlamodalar.

Turkiyaning geosiyosati boshqa ko‘plab davlatlarning geosiyosatidan nafaqat milliy manfaatlariga, balki qator siyosiy mafkuralarga ham sodiqligi bilan ajralib turadi. Mafkuradan siyosiy maqsadlarda foydalanish davlat ijtimoiy taraqqiyotining deyarli butun davrida dolzarb bo‘lib kelgan. Mamlakat mustaqillikka erishgandan to zamonaviy davrga qadar bo‘lgan vaqt davomida bir nechta mafkuralar asosida davlatning tashqi siyosati shakllantirilgan.

*Kamolchilik:* Respublika tashkil topganidan keyingi 80 yil davomida mamlakat ichki va tashqi siyosatining mafkuraviy asosini birinchi Prezident Mustafa Kamol Otaturk shakllantirgan “kamolchilik” mafkurasi – tamoyillar majmui tashkil etdi. Otaturk uzoq yillar davomida mamlakat siyosatini belgilab bergan ichki va tashqi siyosat mafkurasi 1937-yildagi konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan “olti o‘q” tamoyillariga asoslangan 1) respublikachilik; 2) milliyatchilik; 3) milliylik; 4) laitsizm (dunyoviylik); 5) davlatchilik; 6) inqilobiy ruh (inqilob tamoyillariga sodiqlik)<sup>8</sup>. Bugungi kunda Turkiyada ushbu tamoyillarni qo‘llab-quvvatlaydigan guruhlar o‘zlarini “Ataturkchilar” deb ataydi va ular o‘zlarini ko‘proq Yevropaga (G‘arbga) integratsiyalashni istaydi.

*Neosmoniylik:* 1985-yilda ingliz siyosatshunosi Devid Barchard o‘zining “Turkiya va G‘arb” asarida ushbu atamadan foydalanib, usmonlilar merosiga qiziqish va hurmatning tiklanish tendensiyasini “neousmoniylik” deb atagan<sup>9</sup>. Aslida, neousmoniylikni bugungi Turkiyaning norasmiy tashqi siyosiy doktrinasi deb atash mumkin. Uning maqsadi sobiq Usmonli imperiyasi hududida ta’sirni kengaytirish va o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashdir. Bu maqsadni amalga oshirishning asosiy vositasi “yumshoq kuch”, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash, gumanitar va madaniy hamkorlik va hokozolar bo‘lishi kerakligi tushuniladi. Erdog‘an hokimiyatga kelganidan keyin neousmoniylik strategiyasi kuchayganligi uning Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Bolqon va Kavkazda faol tashqi

<sup>8</sup> Аватков В.А. Внешнеполитический курс Турецкой Республики в рамках современной системы международных отношений. дисс. док. пол. наук. М., 2020. – С. 90

<sup>9</sup> Шангареев Р.Н. Россия во внешней политике Турции. Дисс кан. пол. Наук. М., 2020. – С. 47-50

siyosat olib borayotganligi bilan ko‘rinadi. Xususan, 2024-yil dekabr oyida Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan muxolifat kuchlarning Suriya hokimiyatiga kelishi va Ahmad ash-Shara bilan Turkiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalari Suriyada Eron va Rossiyaning o‘rniga Turkiyaning roli har tomonlama kuchayishiga olib keldi. Turkiyalik siyosatchi va siyosatshunoslarning buyuk ishlar Shom (Damashq)ni egallashdan boshlanganligi borasidagi fikrlari Turkiya geosiyosatida neousmoniylikning hayotga tatbiq qilish borasidagi ishlar hali davom etishini ko‘rsatadi.

“*Strategik chuqurlik*” konsepsiyasi muallifi hamda Turkiya zamonaviy tashqi siyosatining me‘mori hisoblangan Ahmad Dovuto‘g‘li Turkiyaning “markaziy davlat” va mintaqaviy yetakchi sifatidagi rolini o‘rnatish, tarixiy merosi va strategik geografik joylashuvi, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy va madaniy jozibadorligi orqali davlatni xalqaro maydonda nufuzli o‘yinchiga aylantirishni nazarda tutadi. “Strategik chuqurlik” konsepsiyasining eng muhim jihatlaridan biri “yumshoq kuch” siyosati tushuniladi. Shuningdek, unda Turkiyaning o‘rtamiyona yoki oraliq kuchdan yetakchi kuchga aylanish vaqti kelganligi haqida fikrlar ilgari suriladi<sup>10</sup>. Dovuto‘g‘lining yana bir konsepsiyasi “*Qo‘shnilar bilan nol muammo*” strategiyasida Turkiya Respublikasi siyosiy, tarixiy, madaniy jihatdan kelishmovchiliklarga qaramay, barcha qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni o‘rnatishi shartligi ilgari suriladi. Uning fikricha, Turkiya Respublikasi faqat do‘st davlatlar bilan o‘ralgan holda faol rivojlanib, savdo hajmini oshirib, iqtisodiyotini mustahkamlashga qodir<sup>11</sup>. Biroq, mazkur strategiyasi amalga oshmadi aksincha 2010-2020 yillarda deyarli barcha qo‘shnilari bilan ziddiyatga duch keldi.

*Turkiy dunyo*: 90-yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib boshlaganda Turkiya ommaviy axborot vositalarida va siyosiy yetakchilarining nutqlarida “Turk dunyosi” shiorlari keng yangray boshladi. Bu aslida Turkiyaning yangi geosiyosiy paradigmasi edi. Boshqacha qilib aytganda, “Turk dunyosi” Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan munosabatlarini qonuniylashtiradigan va mustahkamlaydigan geosiyosiy nutq edi. Bu orqali Turkiya mintaqada o‘z mavqeyini oshirish bilan birgalikda, o‘z siyosiy rivojlanish modelini ham targ‘ib qilishni maqsad qilgan edi<sup>12</sup>.

Dissertatsiyaning **Turkiya geosiyosatining ustuvor yo‘nalishlari rivojlanishida Markaziy Osiyo omili** nomli ikkinchi bobida Markaziy Osiyo mintaqasi sovuq urush yakunlanganidan so‘ng Turkiya geosiyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida shakllanish bosqichlari, mintaqadagi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari, mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari hamda Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan “yumshoq kuch” siyosatining mazmun-mohiyati, ta’sir vositalari va istiqbollari tahlil etilgan.

Markaziy Osiyo (MO) mintaqasi bugungi kunda turli global va mintaqaviy

<sup>10</sup> Мехдиев Э.Т. «Неоосманизм» в региональной политике Турции. М., 2016. – С. 32-36.

<sup>11</sup> Duran B., Üç Örnekle Türkiye’nin artan jeopolitik Önemi. SETA, 06 Ekim 2023. <https://www.setav.org/yorum/uc-ornekle-turkiyenin-artan-jeopolitik-onemi>

<sup>12</sup> Tutan Melih Nadi, “Türk Modeli” ve “Türk Dünyası” Söylemlerinin Jeopolitiği: 1990’lar Türkiye’sine Bir Bakış. *Türkiye Siyaset Bilimi Dergisi* (Turkish Journal of Political Science). Vol. 3 Issue 2, 2020, s. 195 (ss. 185-204).

kuchlarning (Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya va Eron) manfaatlari to'qnashgan hudud hisoblanadi. Mintaqaning geosiyosiy salohiyati yirik tabiiy resurslar – neft va gaz zahiralarning mavjudligi, uran, oltin kabi ma'danlarning ko'pligi, Sharq va G'arbni bog'lovchi tranzit va aloqa yo'llari aynan shu mintaqa orqali o'tganligi, Kaspiy dengizining strategik va geoiqtisodiy ahamiyati hamda tabiiy resurslarning qazib olinishini bevosita nazorat qilishi bilan baholansa, boshqa tomondan Rossiya, Eron va Xitoyga bir vaqtning o'zida siyosiy ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi qulay geosiyosiy joylashuvidir. Markaziy Osiyo mintaqasining yana o'ziga xos xususiyatlaridan biri u yerda turkiy tilli davlatlarning ustunligidir. Yuqorida keltirib o'tilgan omillar mintaqaning zamonaviy hamjamiyatdagi muhim geosiyosiy ahamiyatini tushuntiradi<sup>13</sup>.

Mustaqil turkiyzabon musulmon davlatlari bilan yangicha tashqi siyosiy faoliyatini va qulay munosabatlarning o'rnatilishiga Turkiyaning, shubhasiz, madaniy yaqinligi va iqtisodiy yutuqlari, shuningdek, "turk modeli" deb nomlangan davlat rivojlanishining modeli yordam berdi. Uning o'ziga xosligi shundan iborat ediki, u o'zida kuchli musulmon an'analarini saqlagan holda G'arb mamlakatlarida mavjud bo'lgan demokratiya elementlarini mujassam etgan dunyoviy siyosiy tizimni birlashtirgan<sup>14</sup> bo'lib, endigina kommunizm mafkurasidan ozod bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun jozibador edi<sup>14</sup>.

Mustaqillikning ilk yillarida Turkiya va mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar jadal siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi munosabatlarning rivojlanishi, jumladan, 1992-yilda bo'lib o'tgan Anqara sammiti yakunida imzolangan "Birodarlik ruhi" to'g'risidagi deklaratsiyaning imzolanishi bilan tavsiflanadi. Biroq, Turkiyaning "Turkiy Millatlar Hamdo'stligi" yoki "Mustaqil Turkiy Davlatlar Assotsiatsiyasi"ni yaratish tashabbusi mintaqada Anqara kutgan natijalarga olib kelmadi. Qozog'istonning birinchi Prezidenti N.Nazarboyev ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyo davlatlari bir "katta og'a" ketganidan keyin boshqasini qabul qilishni istamadi<sup>15</sup>. Markaziy Osiyo davlatlari uchun milliy suverenitet asosiy ustuvor va mutlaq qadriyatga aylandi. Shuningdek, Turkiyada mavjud bo'lgan jamiyatni siyosiy, diniy va etnik bo'linishiga qaratilgan g'oyalari yosh mustaqil MO davlatlari uchun qabul qilinadigan holat emasdi. Shu bilan birga, Turkiya o'zining geosiyosiy maqsadlarini faol olib borishda yetarli resurslarga ega emasligi, ichki siyosat bilan o'ralashib qolishi (kurd terror va separatistik guruhlar bilan kurash), iqtisodiy inqirozlari Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosiy faolligini zaiflashtirdi.

Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari mintaqa davlatlarining o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan yillardan boshlanganiga qaramasdan, 2017-yildan boshlab mintaqaviy hamkorlik darajasiga ko'tarilgani e'tiborga molik. Turkiyaning Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash yo'lidagi yana bir muhim tarmog'i savdo kelishuvlaridir. 2023-yil

<sup>13</sup> Şık A. İmamın ordusu. – İstanbul: Kırmızı Kedi Yayınevi, 2017. – P. 120.

<sup>14</sup> Asopa Sh.K. Turkey in Central Asia. New Delhi, 2008. – P. 61-65.

<sup>15</sup> Назарбаев Н.А. На пороге XXI века. – Алматы: АТАМУРА, 2003. – С.196.

statistik raqamlarga ko'ra Turkiya O'zbekistonga 500 mln. dollardan ortiq sarmoya kiritib, ikki davlat o'rtasidagi umumiy savdo aylanmasi 3.22 mlrd. dollarni tashkil etdi. Qozog'iston esa Turkiyaning eng yaqin iqtisodiy hamkorlaridan biri bo'lib, ikki tomonlama savdo aylanmasi taxminan 6.13 mlrd. dollar atrofida baholanadi. Yuqoridagi ma'lumotlar Turkiyaning O'zbekiston va Qozog'iston bilan savdo aloqalari mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan ancha faol rivojlanayotganini ko'rsatmoqda<sup>16</sup>.

Markaziy Osiyo mintaqasidan nefti va gaz zahiralari tashish hamda mintaqani Turkiya bozoriga va undan tashqariga bog'laydigan yo'llarning barpo etilishi Yevroosiyodan Turkiyaga va Yevropaga yetkazib berish bo'yicha "energetika xablari" dan biriga aylanishi, uning iqtisodiyotiga kiritiladigan sarmoya oqimi kuchayishiga imkon yaratadi. Xususan, "Boku-Tbilisi-Jayhun" neft quvuri va "Boku-Tbilisi-Kars" temiryo'li Markaziy Osiyo va Turkiya o'rtasida yuk va resurslarni tashishni osonlashtiradigan muhim loyihalar sanaladi. Mohiyatan, bu tashqi siyosatda mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan va energetika oqimlari barqarorligini ta'minlashni maqsad qilib olgan tashqi siyosat strategiyasi sifatida baholanadi<sup>17</sup>.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy mojarolarni tartibga solishda va nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda boshqa global aktorlar qatorida Turkiya ham bevosita manfaatdor hisoblanadi. Ayniqsa, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlik nuqtayi nazaridan Turkiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy geosiyosiy manfaatlaridan biri o'z xavfsizligi va mintaqa barqarorligini ta'minlashdir. Turkiya terrorizm, ekstremizm va narkotrafikka qarshi kurashda ushbu tahdidlarning o'z hududiga tarqalishining oldini olish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qilishga intiladi. Albatta, ushbu masalalarda Turkiya va MO davlatlari orasida muammolar va tushunmovchilik holatlari ham bo'lganligini ta'kidlashimiz kerak.

Shuningdek, Turkiya musiqa, kino, turizm, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarda turkiy tilli davlatlar uchun jozibador hisoblanadi. Turkiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri Mavlud Chavusho'g'li ta'biri bilan aytganda "doimiy kuch yumshoq kuchdir. Bugun Turkiya yumshoq kuchdan dunyoda eng samarali foydalana olayotgan davlat sirasiga kiradi"<sup>18</sup>. Turkiyaning yumshoq kuch salohiyati asosan uning tarixi, madaniyati va geografiyasi bilan bog'liq. Aynan tarixiy meros, din, til va umumiy qadriyatlar, turkiy davlatlar bilan madaniy aloqalar ular bilan o'zaro munosabatlarning yuqori darajasiga olib keldi. Davlatning yumshoq kuchini amalga oshiruvchi vosita sifatida *TİKA*, *TURKSOY*, *Diyanet*, *Anadolu Ajansi* kabi tashkilotlar haqida alohida to'xtalib o'tishimiz o'rinlidir.

90-yillar boshida tashkil etilgan *TİKA*<sup>19</sup> va *TURKSOY*<sup>20</sup> kabi tashkilotlar

<sup>16</sup> Turkey's Relations with Central Asian Republics. Türkiye Cumhuriyeti Dışişleri Bakanlığı. [Электронный pecypc]: [http://www.mfa.gov.tr/turkey\\_s-relations-with-central-asian-republics.en.mfa](http://www.mfa.gov.tr/turkey_s-relations-with-central-asian-republics.en.mfa)

<sup>17</sup> Turkey 2021. Energy Policy Review. IEA // <https://www.iea.org/reports/turkey-2021>

<sup>18</sup> Turkey makes best use of soft power: Turkish FM // Hürriyet Daily News URL: <https://www.hurriyetdailynews.com/turkey-makes-best-use-of-soft-power-turkish-fm-131707>

<sup>19</sup> Hakan Fidan, "Turkish Foreign Policy towards Central Asia," *Journal of Balkan and Near Eastern Studies*. 2010. – P.113.

<sup>20</sup> Aidarbek Amirbek, Almasbek Anuarbekuly, and Kanat Makhanov, "Türk Dili Konuşan Ülkeler Entegrasyonu:

ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlik qilish orqali turkiy davlatlarni Turkiya yetakchiligida birlashtirishga qaratilgan harakatlarni muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyo davlatlariga bir millatning turli davlatlari sifatida qarashni kuchaytirish uchun turkiy xalqlarning madaniyati, san‘ati, tili va tarixiy merosini muhofaza qilish, bu qadriyatlarni tanishtirish va kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, ta‘lim, qishloq xo‘jaligi, sanoat va moliya sohalarida ko‘plab loyihalar amalga oshirishga qaratilgan Turkiya tashqi siyosati va geosiyosiy maqsadlarini o‘zida aks ettiradi<sup>21</sup>.

*DIYANET* - Diniy ishlar boshqarmasi bo‘lib, Turkiya o‘zining geosiyosiy manfaatlarini ilgari surish uchun mazkur diniy institutlardan faol foydalanmoqda. Diyanetning shtati 429 xodimdan iborat bo‘lib, ularning asosiy qismini imomlar tashkil etadi. Shuningdek, Diyanetning xalqaro miqyosdagi faoliyati Turkiyaning “yumshoq kuch” siyosatidagi o‘rnini tasdiqlaydi. Tashkilot xorijda 644 nafar xodimga ega bo‘lib, ularning 79 nafari doimiy, 565 nafari esa shartnoma asosida faoliyat yuritadi. Bu esa Anqaraning diniy diplomatiya strategiyasining bir qismi bo‘lib, Diyanet orqali Turkiya musulmon diasporalari bilan aloqalarni mustahkamlash va global ta‘sirini kengaytirish yo‘lida harakat qilayotganini ko‘rsatadi<sup>22</sup>.

Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bo‘lgan aloqalarida asosan ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratgan Turkiya tashkilot doirasida 1992-yilda yo‘lga qo‘ygan “Buyuk talaba loyihasi” asosida turkiy respublikalardan yuzlab talabalarni Turkiyaga olib keldi. 2011-yilda tashkil etilgan “Turkiya stipendiyalari” nomi bilan ko‘plab stipendiya dasturlari Xorijdagi turklar va qardosh jamiyatlar vazirligi tomonidan boshqariladi. Ushbu dastur doirasida o‘rin olgan “Turkiyzabon davlatlar stipendiya dasturi” asosida 2023-yil raqamlariga nazar tashlasak, Qog‘istondan 1000 dan ortiq talabalar Turkiyadagi universitetlarga qabul qilinmoqda. Qolaversa, turk tilini keng targ‘ib etish maqsadida amalga oshirilgan faoliyatlar bilan Turkiyaning muhim madaniy aloqalar markaziga aylangan Yunus Emre institutining Markaziy Osiyodagi birgina markazi Ostonada faoliyat ko‘rsatmoqda. Qirg‘iziston va Turkmanistonda Turkiya xalq ta‘limi vazirligiga qarashli 4 ta, Qozog‘istonda esa bitta ta‘lim markazi faoliyat ko‘rsatadi. Qirg‘iziston-Turkiya Manas universiteti 1997-1998-o‘quv yilidan beri Bishkekda faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Turkiy dunyoning dastlabki hamkorlikdagi universiteti bo‘lgan Ahmad Yassaviy universiteti esa ta‘lim-tarbiya va tadqiqot faoliyatlarini Qozog‘istonda olib bormoqda. Universitetda darslar asosan turk va qozoq tillarida olib boriladi<sup>23</sup>.

Dissertatsiyaning **Turkiya zamonaviy geosiyosatida Markaziy Osiyo o‘rni va istiqbollari** deb nomlangan uchinchi bobida Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlarining ikki tomonlama hamda institutsiallashgan tashkilot doirasida

---

Tarihsel Gelişimi ve Kurumsallaşması [Turkic Speaking Countries' Integration: Its Historical Development and Institutionalization]”, ANKASAM: Bölgesel Araştırmalar Dergisi 1, no.3, 2017: 164-204.

<sup>21</sup> Надеин- Раевский В. А. Турция на пороге непростого выбора // Международная жизнь, 2014. № 3. С.26.

<sup>22</sup> Diyanet İşleri Başkanlığı, <https://rehberlikteftis.diyamet.gov.tr/>

<sup>23</sup> Purtas F. International Organization of Turkish Culture, The Turkish states and Societies Annual 2013.

munosabatlarning rivojlanish tamoyillari, O‘zbekiston va Turkiya strategik hamkorligining asosiy o‘ziga xos jihatlari va istiqbollari tadqiq etilgan. Ushbu bobda, shuningdek, Turkiy davlatlar tashkilotining Turkiya va mintaqada davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va do‘stlikka asoslangan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy sohalarda, shu bilan birgalikda, mintaqadagi tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi hamkorligida tutgan o‘rni va ahamiyati, ushbu tashkilotning barqaror iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni ta‘minlashdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

